

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZILIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI

O'quv-uslubiy boshqarm

№ 351

«3» 07 2024



“Tasdiqlayman”
Namangan muhandislik-
qurilish instituti rektori
Sh.T.Ergashev
2024-yil «3» 07

RAQAMLI IQTISODIYOT

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohalari: 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohalari: 310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishlari: 60310100 - Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul' kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
DIGECO6	2024-2025	4	6
Fan/modul' turi	Ta'lim turi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftadagi dars soatlari
Majburiy fanlar	O'zbek	90	6
Fanning nomi	Jami yuqlama (soat)		Jami yuqlama (soat)
Raqamli iqtisodiyot	(44 m / 46 a)		180
<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi – talabalarga raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o'zni va ahamiyatini o'rgatish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, biznes modellari, elektron tijorat, blokcheyn texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga makro hamda tarmoqlar darajasida turli iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilishning asosiy yondashuvlari, raqamli iqtisodiyotning texnologik, holatiy, tashkiliy-huquqiy hamda institutsional xususiyatlarini inobatga olgan holda vaziyatlarni to'g'ri modellashtirish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etish, blokcheyn texnologiyalarning mohiyatini anglab etish, global axborot resurs bazalaridan samarali foydalanish, davlat-xususiy sheriklik shartlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, axborot xavfsizligi muammolarini aniqlash, elektron biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, elektron tijorat modellariidan samarali foydalanish yuzasidan samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatishdan iboratdir.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Raqamli iqtisodiyotning texnologik, holatiy, tashkiliy-huquqiy hamda institutsional xususiyatlarini inobatga olgan holda vaziyatlarni to'g'ri modellashtirish; ➤ Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etish; ➤ Davlat-xususiy sheriklik shartlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish; ➤ Elektron tijorat modellariidan samarali foydalanish yuzasidan samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatish; ➤ Blokcheyn texnologiyalarning mohiyatini anglab etish; <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Raqamli iqtisodiyot" faniga kirish</p> <p>Axborotlashtirish jamiyatining rivojlanish asoslari. Axborot texnologiyalarini rivojlantirishning iqtisodiy qonunlari. Raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi. Innovatsion g'oyalarni, yuqori</p>			

texnologiyalarni ishlab chiqarishga, jamiyat hayotiga izchil ta'biq etish. Raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish.

2-mavzu. Raqamli iqtisodiyot: elektron biznesni boshqarish asoslari

Elektron biznesning mohiyati va rivojlanish xususiyatlari. Tarmoqli (setevaya) iqtisodiyot. Innovatsion texnologiyalarning raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni. Raqamli iqtisodiyot belgilari. Mamlakatlar bo'yicha Yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibi. Internet tarmog'ida biznesning yaratilish xususiyatlari. M2M texnologiyasi - Internet ashyolari asosi sifatida. Internet ashyolarining muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Raqamli iqtisodiyotning ekotizimi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari. Jamiyatni raqamlashtirish muammolari. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari, huquqiy asoslari.

3-mavzu. Elektron savdo (internet savdo) ning rivojlanish xususiyatlari

Elektron tijorat (e-commerce) va elektron savdo (e-trade) xususiy belgilar va farqlar. Mobil tijorat (m-commerce). Raqamli iqtisodiyotning biznesga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-xatarlar. Elektron biznes modellari. Bozor tizimi. Axborotlashgan bozor ishtirokchilariga raqamli iqtisodiyotning ta'siri. Virtual olam, "nozik mizoj", bulutli texnologiyalar xususiyatlari. Elektron biznes va elektron tijorat bozorida eng qimmatbaho bitimlar hamda startaplar.

4-mavzu. Iqtisodiyotni raqamlashtirish ko'rsatkichlari

Raqamli iqtisodiyot indikatorlari, ularning xususiyatlari. Digital Economy and Society Index (DESI), Networked Readiness Index (NRI), Digital Evolution Index (DEI), IMD World Digital Competitiveness (MDC), raqamli rivojlantirish bo'yicha boshqa ko'rsatkichlar.

5-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda biznesni boshqarishning xususiyatlari

Raqamli iqtisodiyot texnika va texnologiyalarining xususiyatlari. Kelajak texnologiyalari, Raqamlashtirish oqibatlari. Katta ma'lumotlar (Big data) va analitika, ma'lumotlar bazasini tashkil qilish mexanizmi. Big data - qo'llanish sohalari. Bulutli texnologiyalar: imkoniyatlar va kamchiliklar. Biznesning ochiqligi va hamkorlik xususiyatlari. Raqamli kompaniya strategiyalari.

6-mavzu. Mobil texnologiyalar

Raqamli iqtisodiyotda mobil texnologiyalar. Mobil qurilmalar bozori tahlili. O'zbekiston bozoriga mobil qurilmalarning kirib kelish va rivojlanish bosqichlari. Smartfon va mobil telefonlar bozorining rivojlanish dinamikasi.

Korporativ tarmoqqa mobil texnologiyalarning kirib kelish xususiyatlari. Mobil texnologiyalarni joriy qilish modellari. Mobil texnologiyalar va biznesning raqamli transformatsiyasi.

7-mavzu. Neyrotexnologiyalar va sun'iy intellekt

Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi. Sun'iy intellekt bilan smart-media vositalari o'rtasidagi bog'liqlik. Intellektual tizimning strukturasi. Neyrotarmoqning xususiyatlari. Sun'iy neyron tarmog'ining ishi. Neyrotarmoq - meditsina, psixologiya, neyrofiziologiya, injeneriya bilan bog'liqligi. Intellektual axborot tizimlarining sinflanishi. Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish - intellektual interfeys, murakkab, qiyin formallashtiruvchi masalalarni echish - ekspert tizimlari, rivojlanish va mustaqil o'rganish qobiliyati - mustaqil o'rganuvchi tizimlar. Sun'iy intellekt bozori o'zgarishlari. Sun'iy intellekt - iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish omili sifatida. Mamlakatning rivojlanishida intellektual kapitalning o'rimi. Intellektual resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari. Sun'iy intellektning rivojlanishi: ijobiy va salbiy jihatlari.

8-mavzu. Biznesda fikrlash dizayni

Biznes jarayonlarini boshqarishda fikrlash - dizaynning xususiyatlari. Fikrlash dizayni - foydalanuvchiga yo'naltirilgan mahsulot, servis va xizmatlar ishlab chiqishdir. Fikrlash dizayni - doimo birinchi o'ringa foydalanuvchi so'rovlarini qo'yadi va faqat shundan keyingina texnik amalga oshirish imkoniyatlari va iqtisodiy imkoniyatlarga e'tibor qaratiladi. Fikrlash dizayni bosqichlari. Empatiya - insonga yo'naltirilgan dizayn-jarayoni markazi. Biznes jarayonida fokuslashirish. G'oyalar ishlab chiqish. G'oyani tanlash. Prototiplash - to'g'ri echim topish uchun yordam beradigan iteratsion maketlar yaratish. Test o'tkazish - yaratilgan prototiplar haqida teskari aloqa olish.

9-mavzu. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari

Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarining mohiyati. To'ldirilgan reallik-AR (*augmented reality*, AR) texnologiyalar o'zbek to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldirish, qabul qilishga yordam beruvchi sensor qurilmalar sifatida. VR (*virtual reality*, VR, *sun'iy reallik*) virtual reallik - texnik vositalar yordamida ob'ekt to'g'risidagi ma'lumotlarni yaratish, insonlarga ularning tasavvurlari orqali etkazish usuli. AR/VR texnologiyalarni rivojlantirish muammolari. AR/VR texnologiyalari jahon bozori xususiyatlari.

10-mavzu. Innovatsion biznesda robot texnikalaridan samarali foydalanish

Biznesda robot texnikalaridan samarali foydalanishning tarixi. Robototexnika turlari. Ilm-fan va texnika yutuqlari asosida yaratilayotgan

zamonaviy robotlar. Xalqaro Robototexnika Federatsiyasi (IFR) va uning vazifalari. Mamlakatlar sanoatidagi robotlashganlik darajasining tahlili. Jahon robototexnika bozori tahlili. Robototexnikaning asosiy trendlari.

11-mavzu. Elektron biznes modellari

Tovarlari va xizmatlari bozorining globallashuvi. Avlodlar nazariyasi. Birgalikda iste'mol (Sharing economy). Kelajak avlodlari (Kelajak avlodlari (Generation NEXT) xususiyatlari va amalga oshirish imkoniyatlari. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida an'anaviy biznes modellarning o'zgarishi. Elektron biznes va elektron tijoratni boshqarishning tashkiliy strukturasi. Elektron tijoratda buy-side hamda sell-side tizimi. CRM - texnologiyalarning qo'llanilishi va xususiyatlari. Elektron tranzaksiyalarni amalga oshirishda etkazib berish zanjirlarini boshqarish. Tashkilotni boshqarishda funksional-madqsadli model. Internet tarmog'ida biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar klassifikatsiyasi. Elektron biznesda narx strategiyalari. Kraudfanding (crowdfunding) - kompaniyani kapitallashtirish texnologiyasi sifatida. Elektron biznes samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari.

12-mavzu. Biznesda kraudsorsing va kraudfanding yangi imkoniyatlari

Biznesda kraudsorsing va kraudfanding nazariy-uslubiy asoslari. Zamonaviy kompaniyalar biznes modelida kraudsorsing va kraudfanding texnologiyalarining xususiyati. Tijorat va ijtimoiy kraudsorsing xususiyatlari. Innovatsiyalar kraudsorsingi. Kraudsorsing asosida Internet xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari. Kouz nazariyasi. Kraudsorsing asosida innovatsion marketing elementlaridan samarali foydalanish. Kraudsorsing tovar/xizmatiga qo'shimcha talabni shakllantirish. Kraud-loyihalarni amalga oshirishda vujudga keladigan risk va to'siqlar.

13-mavzu. Zamonaviy elektron tijorat bozori xususiyatlari

Elektron tijoratning rivojlanish tarixi, texnologiyalarning elektron tijorat rivojiga ta'siri. Mamlakatlar YalMda elektron tijoratning ulushi. Yangi bozorlarning shakllanishida elektron tijorat texnologiyalarining ta'siri. Xalqaro elektron tijorat ishtirokchilari. Elektron xizmatlar va raqamli mahsulotlar bozorining xususiyatlari. Xerfindal - Xirshman indeksi. Internet-magazin, elektron to'lovlar, internet banking i kriptovalyuta. Elektron reklamaning samaradorligini baholash. O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish xususiyatlari.

14-mavzu. Elektron tijorat modellari

Biznes modellashirishga bo'lgan turli yondashuvlar mohiyati. Biznes-

modelni tuzish va ularning klassifikatsiyasi. E-tijorat modelini tuzish xususiyatlari (V2V, V2S, V2G, S2S va boshqalar). Elektron-magazinlarni tashkil etish biznes modeli. Elektron tijoratni rivojlantirish omillari. Elektron tijoratda risklar. Ijtimoiy tarmoqlarda biznes modellari. O'zbekistonda elektron tijorat modellari rivojlanish yo'nalishlari.

15-mavzu. Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari

Elektron hukumat to'g'risidagi qonun mazmun mohiyati. O'zbekiston 2030 yilgacha BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi va Butunjahon bankining Tadbirkorlikni yuritish indeksida 30ta eng rivojlangan mamlakatlar safiga kirishi borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. Elektron hukumatning asosiy vazifalari va uning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining yagona axborot maydonini yaratish. Davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish, ularning muvofiqligi va o'zaro hamkorligini ta'minlash. Davlat organlari faoliyati samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlashda elektron hukumatning o'rni. Aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi. Davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruv tizimida «bir darcha» tamoyilini joriy etish. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP). BMTning AKTdan foydalanish samaradorligini baholaydigan indeksi (E-Participation Index). O'zbekistonda ochiq ma'lumotlar portali.

16-mavzu. Elektron ta'lim platformalarini rivojlantirish

Elektron ta'lim bozorining rivojlanishi va ta'lim platformalarining turlari. O'zbekistonda elektron ta'limni rivojlantirish yo'nalishlari. Raqamli ta'lim muassasasi kontseptsiyasi. Ta'lim xizmatlari eksportini tashkil etish. Vebinar va video konferentsiyalar tashkil etish. Masofaviy ta'limni rivojlantirish yo'llari. Ta'lim sohasini raqamlashtirishning muammolari va ularni hal qilish yo'llari.

17-mavzu. Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

“Sanoat-4,0” kontseptsiyasi

“Sanoat-4,0” kontseptsiyasining mohiyati va rivojlanishi. Sanoatda raqamli texnologiyalarni qo'llash xususiyatlari. Sharing economy – hamkorlikda iste'molning yangi modeli. Blokeyn texnologiyalar. Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish. Korxonada xodimlarini boshqarishni raqamlashtirish. Xarajatlarni boshqarishni raqamlashtirish. Sotishni va mijozlar bilan aloqalarni boshqarishni raqamlashtirish. Korxonada loyihalarni boshqarishni

raqamlashtirish. Korxonaning debitorlik qarzlarni boshqarish tizimini raqamlashtirish. Tovarning hayot davrini boshqarish jarayonini raqamlashtirish. Sanoat sohasini raqamlashtirishning muammolari va ularni hal qilish yo'llari.

18-mavzu. Raqamli marketing

Raqamli marketing asoslari va 4R kontseptsiyasi. Raqamli marketingning an'anaviy marketingdan ustunlik tomonlari. Iste'molchi va biznes sektorlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari. Marketing media vositalari. Samarali veb-tarmoqlarni yaratishdan va ulardan samarali foydalanish. Raqamli marketingda bozorni segmentlash. Elektron reklama transformatsiyasi. Reklamaga qilinadigan xarajatlardan daromadlar. Elektron reklamani joylashtirishning narx modellari. Raqamli marketing samaradorligini baholash ko'rsatkichlari. Internet tarmog'ida marketing tadqiqotlari. Internet tarmog'ida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish. Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimi (SRM texnologiyalar). Raqamli marketing strategiyalari. O'zbekistonda raqamli marketingni rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari.

19-mavzu. E-branding

Branding - mohiyati va asosiy xususiyatlari. E-brandingning asosiy xususiyatlari. Branding texnologiyasi doimiy mijozlarning tovar yoki xizmatga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga qaratilgan. Qidiruv tizimlari, kontent reklamalar, internet – PR, onlayn-video, e-mail-marketing, audio reklama va boshqalar. E-branding strategiyalari. Kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash hisobiga raqiblardan ustunlikka erishish strategiyasi. Iste'molchi bilan bevosita muloqotga kirishadigan virtual tizimlar yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash strategiyasi. Brendni internetda reklama qilish strategiyasi. Internet-branding – kompaniya bozorda o'z hissasini online savdo hisobiga oshirish strategiyasi. Bolalar branding xususiyatlari. Brendni mustahkamlash, qayta pozitsiyalash, mavjud brendni qimmatlashtirish strategiyalari.

20-mavzu. Iqtisodiyotning ayrim tarmoq va sohalarda elektron

biznesni amalga oshirish

Ishlab chiqarish sohasini raqamlashtirishning asosiy ustunliklari. Xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishda raqamli biznesni amalga oshirish imkoniyatlari. Agrar sohani raqamlashtirishning xususiyatlari. Xizmatlar ko'rsatishni raqamlashtirish. E-bank tizimini rivojlantirish. Raqamli moliya tizimi, moliyaviy aktivlar. E-logistikaning xususiyatlari. Turizm xizmatlari sohasini raqamlashtirishning dolzarb masalalari. O'zbekistonda “Aqlii shahar kontseptsiyasi”ning rivojlanishi.

<p>21-mavzu. Elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish muammolari</p> <p>Axborot xavfsizligini ta'minlashning muammolari. Raqamli xavfsizlik masalalari va uni ta'minlash yo'llari. Internet tarmog'idagi fribgarlik turlari va ularni aniqlash yo'llari. Elektron pochta orqali fribgarlik. Spamlar. Axborotlarni o'g'irlash, kiber-hujumlar. G'irrom raqobat. Raqobat razvedkasi xususiyatlari. Sanoat josusligi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish. Intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilish tizimi. Internet tarmog'idagi fribgarlik muammolarini hal qilish yo'llari.</p>	<p>22-mavzu. Elektron xizmatlar sifatini boshqarish</p> <p>Elektron biznes bozorining rivojlanish trendlari. Rivojlangan mamlakatlarda elektron biznesning holati tahlili. Raqamli xizmatlar xususiyati. Korxonalar va tashkilotlarda elektron xizmatlar ko'rsatishning afzalligi va kamchiliklari. Elektron xizmatlar va ularning sifati o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik. Elektron xizmatlar klassifikatsiyasi. Elektron xizmatlarning sifat darajasini ta'minlash muammolari. Elektron xizmatlar sifatini o'lchash va baholash usullari. Raqamli xizmatlar sifatini boshqarishda tizimli tahlildan foydalanish. Raqamli xizmatlar sifatini ta'minlashda xalqaro standart talablari (E-SQI). O'zbekistonda elektron xizmatlar sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.</p>	<p>23-mavzu. Shaxsiy elektron biznesni yaratish</p> <p>Shaxsiy elektron biznesni yaratish bosqichlari. Shaxsiy biznesni boshlash yo'lidagi faoliyat ketma-ketligi. Yangi mahsulot yoki xizmatlar uchun g'oyalarni izlash va ularni tanlash imkoniyatlari. Startap loyihalari. Bozorni pozitsiyalash asoslari. Investitsiya va moliyalashtirish manbalarini tanlash. Venchur investitsiyalarning xususiyatlari. Shaxsiy elektron biznesni rivojlantirish strategiyalari. Risklarni boshqarish.</p>	<p>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. "Raqamli iqtisodiyot" faniga kirish 2. Raqamli iqtisodiyot: elektron biznesni boshqarish asoslari 3. Elektron savdo (Internet savdo) ning rivojlanish xususiyatlari 4. Iqtisodiyotni raqamlashtirish ko'rsatkichlari 5. Raqamli iqtisodiyotda biznesni boshqarishning xususiyatlari 6. Mobil texnologiyalar 7. Neyroteknologiyalar va sun'iy intellekt 8. Biznesda fikrlash dizayni 9. Virtual va to'ldirilgan realistik texnologiyalar
--	--	--	---

<p>10. Innovatsion biznesda robot texnikalaridan samarali foydalanish</p> <p>11. Elektron biznes modellari</p> <p>12. Biznesda kraudsorsing va kraudfanding yangi imkoniyatlari</p> <p>13. Zamonaviy elektron tijorat bozori xususiyatlari</p> <p>14. Elektron tijorat modellari</p> <p>15. Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari</p> <p>16. Elektron ta'lim platformalarini rivojlantirish</p> <p>17. Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. "Sanoat-4.0" kontseptsiyasi</p> <p>18. Raqamli marketing</p> <p>19. E-branding</p> <p>20. Iqtisodiyotning ayrim tarmoq va sohalarda elektron biznesni amalga oshirish xususiyatlari</p> <p>21. Elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish muammolari</p> <p>22. Elektron xizmatlar sifatini boshqarish</p> <p>23. Shaxsiy elektron biznesni yaratish</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p>	<p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Innovatsion biznesda robot texnikalaridan samarali foydalanish. Zamonaviy elektron tijorat bozori xususiyatlari 2. Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. "Sanoat-4.0" kontseptsiyasi 3. Iqtisodiyotning ayrim tarmoq va sohalarda elektron biznesni amalga oshirish <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>3. V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • zamonaviy bozor iqtisodiyotining ishlashi va rivojlanishining nazariy asoslarini; talab va taklif modeli asosida taqchil resurslarning taqsimlanish mexanizmini; raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorlarning asosiy xususiyatlari va firmalarning ushbu bozordagi harakat qilish qoidalari haqida
--	--	--

<p>tasavvur va bilinga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> talaba bozordagi talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarish; statistik ma'lumotlar asosida talab va taklif funksiyalarini tuzish va ular asosida bozordagi holatni tahlil va prognoz qilish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi; talaba bozor iqtisodiyotini ishlash va rivojlanish mexanizmi to'g'risida; taqchil resurslarni taqsimlanish tamoyillari to'g'risida; talab va taklif asoslari to'g'risida; raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorlar to'g'risida aniq malakalariga ega bo'lishi kerak. 	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ma'ruzalar; real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; esse, tezis va maqola yozish; vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim; muhokamalarda ishtirok etish; kichik guruhlarda ishlash; loyiha ishi bajarish; mustaqil ishlarni bajarish; taqdimot tayyorlash; turli darajadagi testlarni echish; so'rov o'tkazish.
<p>5.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test sinovini topshirish.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Ayupov R.X., Asraev U.M. Kraudsorsing va kraudfundingning raqamli iqtisodiyot uchun yaratadigan imkoniyatlari. Iqtisodiyotning tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida AKT ning ahamiyati, Respublika ilmiy-texnik arjumaning ma'ruzalar to'plami, 3-qism, 2019 yil. 14-15 mart, 398-399 betlar. Ayupov R.X., Qurbonov Z.M. Raqamli iqtisodiyotning davlat boshqaruvida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy tomonlari. "Davlat boshqaruvida raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2019 yil 12 aprel, 43-44 betlar. Ayupov R.X. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. "Молия" илмий журналі, Т.: ТМИ, №4-сентябрь, 2019, 25-35 бетлар.

<p>4. Roger Wattenhofer. The Science of the Blockchain. 2016, 124 pages.</p> <p>5. Jeremy Clark. Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, cryptography (A detailed and technical study of Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, and cryptology); 499 ctp. 2016</p>	<p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz. Jumaev T. Ekologiya iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T., 2014.-240 bet. Jumayev T., Juraev T.I., Yadgarov A.A., Ismailova G.T. Ekologiya. O'quv qo'llanma.-T.: Iqtisodiyot, 2018-y.-218 bet. G.A.Alimova, A.A.Yadgarov, L.Sh.Egamberdieva, A.A.Kazakov. Ekologiya. Darslik.– T.: 2020-y. -250 bet. Jumaev T. Ekologiya iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent, 2004. – 280 b. T.Jumayev, T.I.Jurayev, A.A.Yadgarov, G.T.Ismailova. "Ekologiya" fanidan O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 183 bet. <p>Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi) www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi) www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) http://www.semi.rssi.ru-Rossiya Federatsiyasi Markaziy-iqtisodiy matematika instituti sayti. http://www.nber.com - AQSH iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti. http://www.webofscience.com- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi. http://www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi. http://www.citbrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalar indeksi. <p>7. Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>8. Fan/modul' uchun ma'sullar: I.Ergashev – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedراسи katta o'qituvchisi.</p>
---	--